

## UMUMIY HARBIY MAJBURIYAT VA HARBIY XIZMATNING HUQUQIY ASOSLARI

*Asilbek Yoqub o`g`li Bektoshev*

*Toshkent davlat transport universiteti 2-bosqich talabasi*

### ANNOTATSIYA

Maqolada “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat” to`g`risidagi qonunga tushunchalar, hamda harbiy xizmatdan so`ng yuzaga keladigan muammolar uchun qonunlar ostida yichim qidirilgan.

**Tayanch so`zlar:** harbiy majburiyat, Qurolli kuchlar, haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar, kontrakt bo`yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi, Jinoyat kodeksi, Ma`muriy kodeksi, Yagona intelaktiv davlat xizmatlari

**Umum harbiy majburiyat va harbiy xizmat** -- O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli kuchlar safida xizmat qilishdan iborat faxriy burchi hisoblanadi. Bu bo`yicha 1992-yil 3-iyuldagi 12-chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 10-sessiyasida “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat” , “Muqobil xizmat” to`g`risida va “Mudofa to`g`risida” bir qancha muhim qonunlar qabul qilindi. “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat” to`g`risidagi qonunning uchinchi moddasida keltirib o`tilgan, “Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarning O`zbekiston Respublikasini himoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarligidan iborat bo`ladi hamda O`zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari (bundan buyon matnda Qurolli Kuchlar deb yuritiladi) safini to`ldirishni va ularning rezervini tayyorlashni ta`minlash maqsadida joriy etiladi.

Umumiy harbiy majburiyat fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlashni, harbiy xizmatga chaqirishni (kirishni), chaqiruv yoki kontrakt bo`yicha harbiy xizmat o`tashni, rezervdagi xizmatni, muqobil xizmatni, harbiy ro`yxatdan o`tish qoidalariga rioya etishni, favqulodda vaziyatlarda yoki O`zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz bo`lgan taqdirda aholini muhofaza etish tadbir-choralarini qamrab oladi.

Ushbu Qonunga muvofiq O`zbekiston Respublikasining quyidagi fuqarolari, xususan:

harbiy xizmatga chaqiriladigan va tuman (shahar) chaqiruv uchastkalarida qayd etilgan shaxslar — chaqiriluvchilar;

haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslar — harbiy xizmatchilar;

Qurolli Kuchlarning rezervi yoki zaxirasidagi shaxslar — harbiy xizmatga majburlar;

turli sabablarga ko‘ra harbiy ro‘yxatga olinmagan yoki harbiy ro‘yxatdan chiqarilgan, shu jumladan iste‘fodagi shaxslar — harbiy xizmatga majbur bo‘lmagan shaxslar deb ataladi.

Haqiqiy harbiy xizmat chaqiruv yoki kontrakt bo‘yicha oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlarida Qurolli Kuchlar safidagi harbiy xizmatdir.

Umumiy harbiy majburiyat O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yoki vaqtincha yashayotgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga chet davlatlarning harbiy xizmatiga, xavfsizlik, politsiya, harbiy adliya organlari yoki shu kabi boshqa organlariga xizmatga kirish taqiqlanadi.

Tinchlik davrida oddiy askarlar va serjantlar tarkibi lavozimlarida muddatli harbiy xizmatga, shuningdek safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga o‘n sakkiz yoshdan yigirma yetti yoshgacha bo‘lgan, salomatligiga ko‘ra Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o‘tashga yaroqli erkak fuqarolar chaqiriladilar.

Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlashning tashkil etilishini, amalga oshirilishini va natijalarini nazorat qilib borish, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni uslubiy jihatdan ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, shuningdek ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar tomonidan amalga oshiriladi. Agar O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi harbiy yoki muqobil xizmatga borishdan bo‘yin tovlasa, unga nisbatan birinchi marotabasiga Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 237-moddasi “Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo‘yin tovlash”ga binoan Muddatli harbiy xizmat yoki muqobil xizmatga chaqiruvdan, safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati safiga olinishdan yoki xizmatni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervida o‘tashdan bo‘yin tovlash bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Shu holat ikkinchi marotaba qayta takrorlansa, Jinoyat kodeksining 225-moddasi “Harbiy yoki muqobil xizmatdan bo‘yin tovlash” ga binoan Fuqarolarning muddatli harbiy xizmat yoki muqobil xizmatga chaqiruvdan, safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmati safiga olinish yoxud xizmatni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervida o‘tashdan uzrli sababsiz bo‘yin tovlashi, shunday qilmish uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar:

- a) o‘z badaniga shikast yetkazish;
- b) hujjatlarni qalbakilashtirish yoki boshqacha aldash yo‘li bilan sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz

soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga safarbarlik bo‘yicha chaqiruvdan bo‘yin tovlashi uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Tabiiyki ba‘zi bir majburiy xarbiy xizmatni o‘tamoqchi bo‘lgan fuqaro o‘z viloyatida harbiy xizmatni o‘tamaydi yoki o‘sha hududda harbiy muassasa bo‘lmaydi. Harbiy xizmatni o‘tab bo‘lgach askarga harbiy xizmatni o‘taganligi haqida maxsus guvoxnoma shu bilan birga unga qo‘shib askar haqidagi shaxsiy ma‘lumotlar ham beriladi. Askar harbiy xizmatdan muvaffaqiyatli qaytgandan so‘ng u o‘z tumaniga borib fuqarolarni harbiy ro‘yxatga olish idorasiga boradi. Tabiiyki xavfsizlik nuqtayi nazaridan idoraga kirayotganda biror bir shaxsning eliktron jihozilari (asosan mobile telefon) olib qo‘yiladi. Bu degani shaxs o‘zi xohlamagan ravshda ularning ixtiyorida bo‘ladi. Ya‘ni shaxs bilan mansabdor shaxs o‘rtasidagi munosabatdan hech kimning xabari bo‘lmasligi mumkin. Bu gapim bilan nima demoqchiman. Masalan; harbiy xizmatdan yaqinda kelgan fuqaro mansabdor shaxsning oldiga kelib, men yaqinda harbiy xizmatdan keldim mening hujjatlarimni u joydan bu yerga ko‘chirish kerak deb aytadi. Mansabdor shaxs undan ariza yozib unga qo‘l qo‘yishini so‘raydi. So‘ng undan pochta uchun qanchadir miqdorda pul so‘raydi. Tabiiyki Fuqaro beixtiyor uning aytgan shartiga rozi bo‘ladi. Shunday qilib fuqaro va mansabdor shaxs o‘rtasida huquq buzarlilik (korrupsiya) sodir etiladi. Bu esa o‘z navbatida Jinoyat kodeksining 210-moddasi “Pora olish” va 211-moddasi “Pora berish” kabi javobgarliklarga tortilishi mumkin. Ammo, guvoxlar va dalillar bo‘lmaganligi sababli ushbu hodisa jinoiy javobgarlikka asos bo‘lmaydi. Albatta hamma davlat hodimi ham poraxo‘r emas.

Bu huquqbuzarlilikni oldini olish maqsadida men shuni taklif sifatida kiritishni so‘rab qolamanki, Yagona intelaktiv davlat xizmatlari va Pochta xizmati birlashib shartnoma tuzgan holda, harbiy xizmatni o‘tab kelganlar yoki harbiy ro‘yxatga olish idorasiga fuqaroning davlat tomonidan (ta‘lim muassasa, harbiy xizmat vahakazo...) beriladigan rasmiy hujjat yoki ma‘lumotnoma olish uchun Yagona intelaktiv davlat xizmatlariga yoki Yagona intelaktiv davlat xizmatlari portali(my.gov.uz)ga murojat qilsa va davlat buning uchun xizmatlarga qanchadir miqdorda narx belgilansa, o‘ylashimcha, bu ham fuqaroga, ham davlatga foyda keltiradi. Fuqarolarning mushkuli osonlashadi ham huquqbuzarlilik(korrupsiya)ni oldi olingan bo‘lar edi.

### XULOSA

Ajdodlarimiz o‘zidan keyingi har bir avlodga yigit kishining eng oliy va muqaddas burchi avvalo Ona tuproqni avaylash, uning sarhadlari xavfsizligini, tinchligini ta‘minlashdan iboratligini yana va yana eslatib, shu ruhda tarbiyalab kelgan. Afsuski, hozirgi kunda ko‘pchilik yoshlarning harbiy xizmatga bo‘lgan ishtiyoqi so‘nib bormoqda. Bu esa vatanga bo‘lgan muhabbat hissini ancha susayishi demakdir. “Askarlari



botir el qudratli bo`lur” degan jumlar bizga tanish. Shunday ekan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun avvalo, o`rta ta`lim muassasalariga e`tibor berish kerak. Ular uchun bo`lib o`tdigan darslikda faqatgina nazariya emas balki amaliy bilimlarini oshirish lozim. Buning uchun O`rta ta`lim muassasalariga alohida hodim birlashtirilib, ularga o`quv mashqlari uchun harbiy qurol aslahalarni, ularni yig`ishni, sochishni shuningdek texnik jihatlarini ham urg`atishi maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Hozirgi kunda maktablarda favqulotda holatlar uchun signalizatsiya yo`q. Fiktimizcha, maktablarda favqulotda holatlar uchun ogohlantirish “trevoga” segnallarini o`rnatish va o`quvchilarga favqulotda signal chalinganda qanday harakat qilish bo`yicha maxsus davlat organ xodimlari tomonidan amaliy ko`nikmalar berish maqsadga muvofiq bo`lar edi.

### REFERENCES

“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat” to`g`risida Toshkent sh.,2002-yil 12-dekabr,436-II-son (12-modda birinchi qismining to`rtinchi xatboshisi O`zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-avgustdagi O`RQ-634-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 26.08.2020-y., 03/20/634/1218-son),(3-moddaning nomi O`zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-sentabrdagi O`RQ-564-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019-y., 03/19/564/3690-son), jinoyat kodeksi (225-modda birinchi qismining sanksiyasi O`zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O`RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son), (225-modda ikkinchi qismining sanksiyasi O`zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O`RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son), (225-modda uchinchi qismining sanksiyasi O`zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O`RQ-389-sonli Qonuni tahririda — O`R QHT, 2015-y., 32-son, 425-modda) va (225-modda O`zbekiston Respublikasining 2003-yil 30-avgustdagi 535-II-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 2003-y., 9-10-son, 149-modda), Ma`muriy javobgarlik to`g`risida kodeks (237-moddaning sanksiyasi O`zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda O`RQ-586-sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)